

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIM VAZIRLIGI**


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**60110100 – PEDAGOGIKA (QO'SHIMCHA
TARBIYA FANI O'QITUVCHISI)**

bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABLARI

Toshkent – 2022



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi
_____ bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar
faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «25» 08 dagi
5 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 202_ yil
«9» 09 dagi 302 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi oliy ta‘limning Davlat ta‘lim standarti, Oliy ta‘lim
yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O‘zbekiston Respublikasi Milliy
malaka ramkasi va kasb standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy
me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi
O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy
va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	5
1.2.1.	60110100 – Pedagogika qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy kasbiy faoliyatlarining sohalari:.....	5
1.2.2.	60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:.....	5
1.2.3.	60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:.....	6
1.2.4.	60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....	6
2.	60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Malaka talabini ishlab chiqishda foydalanilgan kasb standarti.....	

1. 60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi va kechki ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi.

Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil. Kechki va sirtqi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4,5 (5) yil bo‘lishi mumkin.

Bakalavriat o‘quv dasturining hajmi ta‘lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi), foydalaniladigan ta‘lim texnologiyalaridan qat‘iy nazar 240 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o‘quv yili uchun bakalavriat ta‘lim dasturining xajmi 60 kreditni tashkil etadi.

Mazkur yo‘nalish doirasida o‘quv dasturlari o‘zaro yaqin bo‘lgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya) berish amalga oshirilishi mumkin. Akademik guruh tanlovi asosidagi traektoriyaga ko‘ra kvalifikatsiya universitet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Qo‘shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya) uchun o‘quv rejaning tanlov fanlari tarkibidan 40-60 kredit miqdorida o‘quv tashkil qilinishi nazarda tutiladi.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli bakalavrlar tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas‘ul oliy ta‘lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;

– ta‘lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi

Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

Davlat organlari;

- ta'lim yo'nalishi (tarkibi)ning bakalvriat ta'lim yo'nalishlaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

- umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'limda tarbiya fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- o'rta maxsus va professional ta'limda pedagogika fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- mahallada yoshlar yetakchisi;

- ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib faoliyat olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'limda laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 6 0110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- umumiy o'rta ta'limda tarbiya fanini o'qitish jarayoni; o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;

- tarbiya fanini o'qitishning zamonaviy va pedagogik texnologiyalari;

- tarbiya fanini o'qitish metodikasi;

- professional ta'limda (kollej va texnikum) pedagogika fani o'qituvchisi;

- ta'limning nazariy masalalari; o'qitish metodikasi;

- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

- ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.

- ta'lim tashkilotlarida psixolog bo'lib faoliyat yuritishi, texniklarda kasbiy fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;

- ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;
- ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;
- pedagogika ta'lim fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;
- mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;
- fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.3. 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik faoliyatida;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyatida;*
- *ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyatida;*

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

- o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va O'Dlarining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, fanlarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillariga ko'ra rejalashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari

va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etish o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

- o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish: ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini taxlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish

- tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

- xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

- o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- pedagogika, tarbiya fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbir etish;

- tarbiya fanini o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- kimyoga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:

- ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga yangi taraqqiyot strategiyasi g‘oyasini singdirish;
- o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- globallashtiruv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha individual suhbat o‘tkazish;
- milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lish.

2. 60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Bitiruvchi quyidagi umummadaniy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

- Shaxsiy o‘ziga intilishni shakllantirish va ob’ektiv baholash, shuningdek, ta’lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- Ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- Ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaganlik;

- Muloqotga kirishish va maxsus matnlarni tushunish uchun chet tillardagi bilimlardan foydalana olish;
- Axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.
- Ijtimoiy o'zaro harakatga kirishishda ta'lim ishtirokchilarining etnomadaniy o'ziga xosliklarini hisobga olish.
- Axloqiy me'yorlar va ma'naviy madaniyatni o'zlashtirish.
- Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;
- Gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- O'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;
- Turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydalanish qobiliyatiga egalik; ota-onalar(yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan munosabatga kirisha olish;
- Psixologik va pedagogik tadqiqotlarning miqdor va sifat metodlarini egallaganlik.
- Turli yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishi, muloqoti, faoliyatini tashxis etish metodlaridan foydalanish qobiliyatiga egalik;
- O'qitish, tarbiya, rivojlanishning turli nazariyalariga doir bilimlar, ta'limning turli bosqichlarida o'qitish dasturlaridan foydalanish qobiliyati;
- Bolalarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish usullarini egallaganlik;
- Ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;
- Pedagogik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish;
- Jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o'ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda, ko'pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash;
- Kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirok etishga qobiliyatlilik;
- Kasbiy faoliyatda bola huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati;
- Tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;
- Inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

- Ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlik..

2.2. Fanga doir kompetensiyalar.

- tarbiya fanining o'ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta'lim muassasalarida o'quvchilarni o'qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallaganlik;
- tarbiyaning nazariyasi va amaliyoti doir zamonaviy bilimlarni egallaganlik;
- tarbiya faniga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o'quvchilarga yetkazish qobiliyati;
- tarbiya fanidan fanning nazariy asoslarini puxta egallagan bo'lishi va tarbiya fanini o'rganishning qonuniyatlari, milliy va jahon tarbiya konsepsiyalari namunalari, tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar haqida bilimiga ega bo'lishi, amaliy xarakatlarni bajarish ko'nikmasiga va malakasiga ega bo'lishi;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiya fanini o'qitish jarayonida ijtimoiy institutlarning o'rnini, tarbiya fanini o'qitishda pedagogikaning tarmoqlaridan foydalanish o'ziga xosliklarini o'rganishga oid bilimlar va ularni amaliyotda qo'llashni egallaganlik;
- tarbiya fanini o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash, tarbiya faninini o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish va ulardan foydalana bilish;
- tarbiya fanining o'qitishda ta'lim-tarbiya texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-amaliy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi amalda qo'llay olishi egallaganlik;
- ta'limni DTS me'yorlari, o'quv dasturlariga ko'ra tashkil etishi, baholash mezonlarini tushunishi, xalqaro baxolash tadqiqotlarini bilishi va o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini (PISA kontekstlari) rivojlantirish faoliyatida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi;

Kasbiy kvalifikatsiyalar:

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, ixtisoslashgan maktablar, litsey va professional ta'lim muassasalarida kimyo va qo'shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya) fanlaridan dars berish, ta'lim tizimida metodist, ishlab chiqarish ob'ektlari va tashkilotlarda laborant, fanlar akademiyalarida laborant-tadqiqotchi mutaxassis kvalifikatsiyalariga ega bo'lish mumkin.

Malaka talabini ishlab chiqishda foydalanilgan kasb standarti:

Kasb standarti nomi	Kasbiy faoliyat turi	Kasb standartining qayd qilish raqami	Kasb standartini amaliyotga joriy etish sanasi
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi	Umumiy o'rta ta'lim pedagogik faoliyat	R.003.1286/I-21	23.08.2021 №332 ICh

Manba: Kasb standartlari reestiri. Manba: Kasb standartlari reestri, <https://prof-standart.uz/uz/profStandart/1291>

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi maqsadga muvofiq:

O'quv davrlari	Xafta taqsimoti
Nazariy va amaliy ta'lim	40-65%
<i>Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati</i>	<i>40/60 nisbatdan 50/50 % nisbatgacha</i>
Attestatsiya	6-15%
Ta'til	8-15%
Malakaviy amaliyot	6-25%
Bitiruv malakaviy ishi	2-7%

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot ob'ekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi


Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari


ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat pedagogika universiteti
Rektor  A. Kirgizbayev
2022 yil « _____ » _____
M.O.


KELISHILGAN:

Kadrlar buyurtmachisi:

OO'MTV huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyatarni tadbiq etish markazi
Direktor  SH.U. Yakubov
2022 yil « _____ » _____
M.O.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi
Direktor  SH.SH. Sattarov
2022 yil « _____ » _____
M.O'.

Fizax davlat pedagogika universiteti
Rektor  _____
2022 yil « _____ » _____
M.O.

Qo'qon davlat pedagogika instituti
Rektor  _____
2022 yil « _____ » _____
M.O.






Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor _____

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**60110100- pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqilgan
malaka talabi mazmuni bo‘yicha ishchi guruhi**

No	Ishchi guruh raisi va a‘zolari	a‘zolarining F.I.Sh	Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni	Imzo
1	rais	X.Sh.Kadirov	Nizomiy nomidagi TDPU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori	
2	rais o‘rinbosari	G.N.Ibragimova	Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani	
3	a‘zo	F.O.Mirzayeva	Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasi mudiri	
4	a‘zo	A.Sh.Muxsiyeva	Nizomiy nomidagi Pedagogika kafedrasi professor v/b, p.f.n.	
5	a‘zo	M.X.Baybayeva	Nizomiy nomidagi Pedagogika kafedrasi professor v/b, p.f.n.	

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor



X.Sh.Kadirov

O‘quv-metodik boshqarma boshlig‘i



G.A.Abdilakimov

O‘quv-me‘yoriy hujjatlarni
takomillashtirish bo‘limi boshlig‘i



B.Dj.Sattarova

Fakultet dekani



G.N.Ibragimova